



Nodavlat Notijorat Tashkilotlari Faoliyatini Tugatish Tartibining Huquqiy Asoslari

Jumaniyazova Iroda Kurbanbayevna

*Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi,
3-darajali yurist*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining ixtiyoriy hamda majburiy tugatish tartibi va muddatlari tahlil qilinadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish komissiyasining vazifa va vakolatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ixtiyoriy tugatish, majburiy tugatish, tugatish komissiyasi, tugatish komissiyasi vakolatlari, tugatish muddatlari.

Qonunchiligimizda nodavlat notijorat tashkilotlarni tashkil qilish, faoliyatini tartibga solish hamda tugatishga doir mustahkam huquqiy asoslar mavjud. Ma'lumki, nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti uning muassislari (a'zolari) qarori asosida qonunchilikka muvofiq tuziladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalari (ittifoqlari) kamida ikkita nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishi, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini, ularning yuridik shaxs hisoblangan alohida bo'linmalarini, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallarini tugatish esa "Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Ushbu nizom ixtiyoriy hamda majburiy tugatish, shuningdek NNTlarning yuridik shaxs hisoblanmagan alohida bo'linmalarini yopish tartibini belgilaydi. Biroq mazkur Nizomning qoidalari qonunchilikda nazarda tutilgan to'lovga qobiliyatsizlik alomatlariga ega bo'lgan NNTlarni tugatishda qo'llanmaydi.

NNTni ixtiyoriy tugatish uning yuqori organi qaroriga binoan, majburiy tugatish esa — sud qarori asosida amalga oshiriladi. Jamoat fondlarini ixtiyoriy tugatish manfaatdor shaxsning arizasi asosida, sudning qaroriga binoan, nizomda ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi. Ayrim NNTlar uchun qonunchilikda ularni tugatishning nizomda nazarda tutilmagan boshqacha xususiyatlari va shartlari belgilanishi mumkin.

NNTni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror uning ta'sis hujjatlarida shunga vakolat berilgan yuqori organi tomonidan qabul qilinadi. Qarorda quyidagilar ko'rsatiladi:

- tugatish komissiyasi tarkibi (agar tugatish komissiyasi NNTning muassislari (qatnashchilari) tomonidan tayinlansa, u holda qarorda bu haqda ko'rsatiladi);



- NNTning mavjud alohida bo‘linmalari ro‘yxati (yuridik shaxs hisoblangan va yuridik shaxs hisoblanmagan bo‘linmalarni alohida ko‘rsatgan holda);
- agar ta‘sis hujjatlariga muvofiq alohida bo‘linmalarni tugatish ishlari ularning rahbar organlari zimmasiga yuklangan bo‘lsa, alohida bo‘linmaga o‘z faoliyatini to‘xtatish va tugatish ishlarini boshlash haqidagi ko‘rsatma;
- tugatishning mo‘ljallanayotgan muddati;
- kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qoladigan mol-mulkning taqdiri (unda NNTning ustavda belgilangan asosiy maqsadlari va vazifalari uchun foydalanish usuli va (yoki) ushbu mol-mulkn xayriya sifatida oluvchilar to‘g‘risidagi to‘liq ma‘lumotlar).

NNTni tugatish komissiyasi tarkibiga, qoidaga ko‘ra, tegishli yuridik, iqtisodiy ma‘lumotga va (yoki) buxgalteriya sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lgan shaxslar kiritiladi. Tugatish komissiyasi tarkibiga tegishli davlat organlari roziligi bilan ularning mutaxassisleri ham kiritilishi mumkin.

Tugatish komissiyasi:

- tugatish ishlarini amalga oshiradi va NNTning kreditorlari, muassislari (qatnashchilari), rahbar organlari a‘zolari yoki boshqa xodimlari manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi;
- NNT qarzdor sifatida ishtirok etadigan ijro hujjatlarining ijrosini tugatish tartiboti doirasida ta‘minlaydi;
- ishonchnomasiz NNT nomidan vakillik qiladi, NNTning moliyaviy, to‘lov-hisob-kitob va boshqa hujjatlarini imzolaydi;
- NNTning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar va boshqa hujjatlar chiqaradi.

Tugatish komissiyasining vakolatlari quyidagi holatlarda to‘xtatiladi:

- tugatish ishlari nihoyasiga yetganda — ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan NNTni tugatish to‘g‘risida yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilganda;
- NNT faoliyati tiklanganda — tugatish ishlari to‘xtatilganligi va NNT faoliyati tiklanganligi to‘g‘risida qaror qabul qilinganda;
- NNT bankrot deb e‘tirof etilganda — NNT bankrot deb e‘tirof etilganligi va tugatish ishlari boshlanganligi to‘g‘risida sud qarori qabul qilinganda;
- yangi tugatish komissiyasi tayinlanganda — yangi tugatish komissiyasini tayinlash haqida qaror qabul qilinganda. Ushbu holatda NNTning barcha hujjatlari, muhrlari, shtamplari va boshqa mol-mulki yangidan tayinlangan tugatish komissiyasiga ikki kun muddat mobaynida ro‘yxat bo‘yicha topshiriladi.

NNTni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qaror qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda sud tomonidan qabul qilinadi, tugatish komissiyasi ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda sud tomonidan tayinlanadi hamda tugatish komissiyasi sudning qarorini olgandan keyin uch ish kuni mobaynida uning nusxasini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga taqdim etadi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ NNTni tugatish to‘g‘risidagi sud qarori nusxasini olgandan so‘ng ikki ish kuni mobaynida yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga NNTning tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritadi hamda bu to‘g‘rida NNT davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati va statistika organlarini, shuningdek Byuroning tuman (shahar) bo‘limini xabardor qiladi.

Sudning qarori qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab NNTni boshqarish bo‘yicha barcha vakolatlar tugatish komissiyasiga o‘tadi. NNTning muassislari (qatnashchilari) va (yoki) rahbar organi a‘zolari uch ish kuni mobaynida NNT faoliyati bilan bog‘liq barcha hujjatlarni, shuningdek NNTning muhr va shtamplarini hamda boshqa mol-mulkini ro‘yxat bo‘yicha tugatish komissiyasiga topshirishlari shart.



NNTni ixtiyoriy tugatishning umumiy muddati ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan boshlab yetti oydan oshmasligi kerak.

NNTning tugatilganligi haqida yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yozuv kiritilishidan oldin ixtiyoriy tugatishning boshqa har qanday bosqichida NNTning vakolatli yuqori organi tomonidan faoliyatni tiklash va tugatish jarayonini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi." O'zbekiston" . Toshkent –2023
2. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun. 763-I-son. 14.04.1999
3. "Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 15.01.2015
4. Mamatov, G. B. R. (2024). Implementation Of The Education System Of European Countries. *Innovations In Technology And Science Education*, 3(19), 135-139.
5. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). The Use Of Information Technology In The Formation Of Professional Competence Of Foreign Language Teachers. *Science And Innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.
6. Mukhammadalievna, B. G. (2023). Theoretical Views On Proverb In German And Uzbek. *International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management*, 2(4).
7. Маджидова, Р. У., Мухиддинова, Х. С., & Султонова, Ш. М. (2015). Тилшуносликка Кириш. Маджидова, Р. (2018). Речевое Поведение Человека В Социолингвистической И Психолингвистической Трактовах. *Farg'ona Davlat Universiteti*, (1), 20-20.
8. Djumaniyozova, Z. (2024). Proverbs As An Object Of Axiological Linguistics. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(01), 56-65.
9. Ruzmetov, B., Avezov, M., Babadjanov, J., Eshniyazova, Y., & Panjiyeva, N. (2023). Regional Features Of Investment Activeness In The Republic Of Uzbekistan. In *E3s Web Of Conferences* (Vol. 449, P. 04004). Edp Sciences.
10. Urishevna, M. R. (2019). Representation Of The Linguistic World Picture Through A Human Factor. *Religión. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades*, 4(15), 234-240.
11. Normahmatovna, P. N. (2021, July). The Role Of Active Investment Policy In Achieving The Competitiveness Of The Tourism Industry In The Region. In *E-Conference Globe* (Pp. 144-152).
12. Панжиева, Н. Н. (2023). Внедрение Туристических Инноваций Зарубежных Стран. In *Актуальные Аспекты Теории И Практики Развития Индустрии Туризма, Гостеприимства И Сервиса* (Pp. 194-199).
13. Madjidova, R. U. (2020). Antropotsentrik Maqollarning Aksiologik Tadqiqi (O 'Zbek Va Rus Tillari Materiallari Asosida). *Filol. Fan. Dok.... Diss. Avtoref.* Маджидова, Р. У. (2024, May). Aksiologicheskaya Shkala Otsenki Obraza Cheloveka V Antropocentricheskikh Posloviцах Uzbekskogo I Russkogo Yazykov. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 10, Pp. 501-504).
14. Urishevna, M. R. N. (2024). Theoretical Background And The Role Of Terminology In Linguistics. *Worldly Knowledge Conferens*, 6(2).
15. Majidova, R. U. (2023). Language As A Communication Tool: Understanding Its Functions And Implications. " Germany" *Modern Scientific Research: Achievements, Innovations And Development Prospects*, 9(1).
16. Khasanova, F. (2022). The Formation And Formation Of The Chinese Language Baihua As The Basis Of The Modern Chinese Language. *Sharq Mash'ali*, (01), 21-23.



17. Xalikovna, R. D. (2023). Teaching Vocabulary Through Word Games. Central Asian Journal Of Social Sciences And History, 4(6), 136-144.
18. Ruzikulova, D., & Muminov, D. (2022). Insurance Technical Risks And Challenges Of Their Development. Women's Health Medicine, 18(1).